



SIRDARYO VILOYATIDA SUG'ORILADIGAN YERLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Rasulov Sodiq Sa'dullayevich

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi

Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi

ORCID: 0009-0008-8676-7187

akash7509@rambler.ru

Rasulova Mohira Sa'dullaevna

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

ORCID: 0009-0002-9006-638X

akash7509@rambler.ru

Annotatsiya. Sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirishning muhim asosi hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada muayyan bir hudud, Sirdaryo viloyati misolida sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, iqtisodiyot tuzilmasi, qishloq xo'jaligi, innovatsion qishloq xo'jaligi, barqaror rivojlanish, samaradorlik, fond qaytimi, fond sig'imi, hosildorlik, unumdorlik.

ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОРОШАЕМЫХ ЗЕМЕЛЬ В СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Расулов Содик Саъдуллаевич

Министерство высшего образования, науки и инноваций

Департамент науки и инновационного развития

Расулова Мохира Саъдуллаевна

Каршинский институт ирригации и агротехнологий

Аннотация. Эффективное использование орошаемых земель является важной основой для устойчивого развития сельскохозяйственного производства. Исходя из этого, в данной статье рассматриваются вопросы повышения эффективности использования орошаемых земель на примере конкретной территории - Сырдарьинской области.

Ключевые слова: национальная экономика, структура экономики, сельское хозяйство, инновационное сельское хозяйство, устойчивое развитие, эффективность, фондоотдача, фондаемость, производительность, результативность.

PROSPECTS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF IRRIGATED LAND USE IN THE SYRDARYA REGION

Rasulov Sodik Sadullaevich

*Department of Management of Science and Innovation Development
Ministry of Higher Education, Science and Innovation,*

Rasulova Mokhira Sadullayevna

Karshi Institute of Irrigation and Agrotechnologies

Abstract. The effective use of irrigated land is an important basis for the sustainable development of agricultural production. Based on this, this article discusses the issues of improving the efficiency of the use of irrigated lands on the example of a specific territory - the Syrdarya region.

Key words: national economy, economic structure, agriculture, innovative agriculture, sustainable development, efficiency, return on funds, capital intensity, productivity, efficiency.

Kirish.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish sur'atlari shundan guvohlik beradiki, kishilik jamiyatining barcha soha va jabhalari, ayniqsa global iqlim o'zgarishi natijasida sayyoramizning ko'plab hududlarida keng avj olayotgan qashshoqlik va ocharchilikka barham berishning asosiy omillaridan biri sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi, shuningdek ularga turli yo'naliislarda xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlarning xo'jalik faoliyatini innovatsiyalar asosida tashkil etish strategik ahamiyat kasb etgani holda, ushbu jarayonni uzlusiz takomillashtirish davr talabiga aylanmoqda.

Muhim strategik tarmoqlardan biri sifatida qishloq xo'jaligining vazifasi - mamlakatda, shuningdek jahon miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir. Goldman Sachs xalqaro konsalting kompaniyasining ma'lumotlariga ko'ra, BMT 2050 yilga borib dunyo aholisi 9,8 mld. kishiga etishini, buning uchun oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 70 foizga oshirish kerakligini bashorat qilmoqda (Goldman Sachs, 2020). BMT, XVJ, Jahon banki kabi bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlar dunyoda oziq-ovqat inqirozi yanada chigallashishini, buning uchun qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, sohaga innovatsiyalarini izchil joriy etish, ilmiy-tadqiqotlarni yanada jonlantirish zarurligini ta'kidlashmoqda.

Yer munosabatlari borasida amalda tarkib topgan tizim undan foydalanish samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yangicha yo'naliislarni izlab topish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirishni talab qiladi. Yer munosabatlarini tahlil qilish O'zbekistonda bu borada tub islohotlar amalga oshirilayotganligini, turli xil tabiatga ega bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning ta'siri ostida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish borasida jiddiy xatarlar vujudga kelayotganligini ko'rsatmoqda. Bu yerga egalik qilish shakllari va turlarining o'zgartirish, yerdan foydalanish borasida huquqiy va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, yerdan foydalanish samaradorligini oshirish borasida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning asarlari yer munosabatlarini tartibga solishning nazariyi va uslubiy masalalariga bag'ishlangan.

Tadqiqotchi Mo'minov (2023) o'z izlanishlarida Andijon viloyati misolida sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalariga to'xtalib o'tadi, uning fikricha, qishloq xo'jaligini ilmiy asosda tashkil qilish sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligining muhim asosi bo'lib hisoblanadi.

Aliqulov (2024) Qashqadaryo viloyati misolida sug'oriladigan yerlardan foydalanish masalalarini tahlil qilish asosida resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanish qishloq

xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda yer resurslari cheklangan sharoitda qayta muomalaga kiritilgan qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni doimiy monitoring qilib borish lozimligi haqida tadqiqotchi Yu. Usmanov o'z ilmiy izlanishlarida to'xtalib o'tadi (Usmanov, 2023).

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini omilli tahlil qilish masalalari Choriev, Sultanov va Yunusovlar tomonidan keng o'rganilgan, ularning fikricha, sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligiga tabiiy-ekologik, agrotexnologik va tashkiliy-iqtisodiy omillar katta ta'sir ko'rsatadi (Choriev va boshq., 2015).

Sug'oriladigan yerlardan foydalanish borasida ko'p sonli tadqiqotlar amalga oshirilishiga qaramasdan, zamonaviy sharoitda agrosanoat majmuasini boshqarish tizimida yer munosabatlarini tartibga solish, cheklangan yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning bir qator masalalari etarli darajada o'rganilmagan. Bu yerga egalik qilish, yerdan foydalanish va yerdan foydalanish muammolarining murakkabligi, institutsional o'zgarishlarning shiddati, yer munosabatlarini rivojlantirishning huquqiy qo'llab-quvvatlashning to'liq emasligi kabilarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini mahalliy va xorijiy olimlarning yerdan foydalanish borasidagi munosabatlarni tartibga solishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari natijalari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan xukumat dasturlari va yo'l xaritalari tashkil qiladi.

Tadqiqot ishining uslubiyoti sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish bog'liq bo'lgan munosabatlarni tizmli-funktsonal va dialektik o'zaro bog'liqlikda tadqiq qilishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraktsiya, dialektik tadqiqot statistik va ekonometrik tahlil, umumlashtirish, guruhlash, tasniflash, iqtisodiy-matematik modellashtirish, taqqoslama tahlil va o'zaro qiyoslash, ekspert baholash kabi usullardan foydalanilgan


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy tendentsiyalari-globallashuv, normarkazlashuv, iqtisodiyotni erkinlashtirish, raqobatning shiddatli tus olishi, innovations iqtisodiyotni yo'lga qo'yish, ijtimoiy ehtiyojlarning insonlarning hayot darajasi va sifatini yaxshilashga yo'naltirilishi bularning barchasi, bugungi kunda Yangi O'zbekiston uchun xos bo'lgan jihat hisoblanadi. Dunyo hamjamiyatining ajralmas bir qismi sifatida O'zbekiston bundan buyon kutilayotgan texnologik o'zgarishlarning yangi to'lqini va ulardan samarali foydalanish; xomashyo eksportiga asoslangan iqtisodiy o'sish modelidan voz kechish; hududlar o'rtasidagi tavofutlarni bartaraf etish; iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida inson kapitaliga alohida e'tibor qaratishi talab etiladi.

Hududlarda barqaror rivojlanish ko'rsatkichlariga erishmasdan turib, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini ta'minlash haqida fikr bildirishning o'zi mantiqiy nuqtai nazardan samarasiz bo'lib hisoblanadi. Dunyoning jadal taraqqiy etayotgan mamlakatlari, xususan Xitoy tajribasi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirishning muhim sharti sifatida hududlar o'rtasidagi tafovutlarga barham berishdan iborat ekanligini ko'rsatadi. Shu bois, bugungi iqtisodiy voqelikdan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, aholi turmush sifatini yaxshilash, bir so'z bilan aytganda ijtimoiy davlat kontseptsiyasini hayotga izchil joriy qilish maqsadida mamlakatimiz hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini atroflicha tahlil qilish har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda.

Bu borada, respublikamiz hududlarini barqaror va jadal rivoj-lantirish uchun ularning kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, tabiiy xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligi, iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyati, shuningdek, hududlarning boshqa qiyosiy ustunliklarini baholashning yagona tizimini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 mayda PQ-4702-son "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq statistik ko'rsatkichlar va so'rovnomalari natijalari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi joriy etildi (Qaror, 2020). Bu esa, o'z navbatida respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish borasidagi muammolarning amaliy echimi bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan bir qatorda, "O'zbekiston-2030" strategiyasida 45-maqsadning maqsadli ko'rsatkichi sifatida Yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish; 60-maqsad sifatida Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash darajasini oshirish va shu kabi ustuvorliklarning belgilab berilishi hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish masalasi qanchalik muhim ekanligiga isbotdir.

Mamlakatimizning har bir hududi o'ziga xos. Bir viloyat ichidagi tumanlarning imkoniyatlari ham bir-biriga o'xshamaydi. Bitta hudud mineral xomashyo resurslariga boy hisoblansa, boshqa bir hududda mineral xomashyo resurslari juda kam, bunday tafovut albatta, inson salohiyatini oshirish hisobiga bartaraf etilishi lozim. 2023 yilda Respublika bo'yicha YaIMning shakllanishida Toshkent shahri 16,6 % ulush bilan eng katta hissa qo'shdı. Toshkent va Navoiy viloyatlari 10,5 % va 7,5 % ko'rsatkichlari bilan keyingi o'rirlarni egallab turibdi. Respublika YaIMini shakllantirishda eng kam ulush Sirdaryo (2,0 %) va Jizzax (3,1 %) viloyatlariga to'g'ri kelgan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi hududlarining 2023 yil mamlakat yalpi ichki mahsulotini shakllantirishdagi ulushi, %⁸¹

Shu bois Qoraqalpog'stton Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari alohida, manzilli tarzda muhokama qilib borilmoqda. Prezidentning

⁸¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2023 yil yanvar-dekabr). T. 2024.

hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yanada oshirishga qaratilgan buniyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishish, xalq bilan uchrashish va muloqot qilish maqsadidagi hududlarga tashriflarida birinchi navbatda hududlar iqtisodiyotidagi o'sish nuqtalarini belgilash va shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Sirdaryo viloyati iqtisodiyotida kuzatilayotgan ijobjiy siljishlar bilan bir qatorda, viloyatda hali ishga solinmagan imkoniyatlar ko'p, jumladan:

- Sirdaryoning yer, suv va tabiat resurslari boy. Aholi jon boshiga ekin maydonlari boshqa hududlarga nisbatan 2-3 baravar ko'p. Viloyatda qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlanganlik darajasi ham yuqori, viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2-2,5 baravarga, eksport hajmini 5-7 baravarga oshirish imkoniyatlari mavjud;

- Sirdaryo viloyati Respublika hududlarini Toshkent bilan bog'lovchi o'ziga xos ko'priklar vazifasini o'taydi, birgina Toshkent shahri va Toshkent viloyatining yaqinligi qariyb 5 mln. iste'molchi mavjud bozor yaratish imkonini beradi;

- Innovatsion iqtisodiyotning muhim sharti-bu ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro uyg'unligi va hamkorligi hisoblanadi, lekin bugungi kunda bu hamkorlik etarlicha o'zini namoyon qilayotgani yo'q;

- Sirdaryo viloyati bir vaqtning o'zida 2 qo'shni davlat Qozog'iston va Tojikiston bilan yaqinligi logistika nuqtai nazaridan viloyatga qo'shimcha afzallikkarni taqdim qiladi;

- Sirdaryo viloyatiga bir oyda qo'shni Respublikalarning kamida bir yarim ming nafar fuqarolari davolanish uchun tashrif buyurishadi, bu viloyatda tibbiyat turizmi, umuman olganda tibbiyat sohasini rivojlan-tirishda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi;

- Sirdaryoni innovatsion hududga aylantirishda oliy ta'limning ustuvor ahamiyat kasb etishi, bu borada shu paytgacha viloyatda yagona oliy ta'lim muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan Guliston davlat universitetida katta salohiyatning mavjudligi va shu kabilar.

Xulosa va takliflar.

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni tashkil etishning asosiy ustuvor yo'naliishlari sifatida: agrosanoat majmui sohasida band bo'lgan hududlardan foydalanishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar majmui ishlab chiqilgan; agrosanoat majmui sohasida band bo'lgan hududlardan foydalanishni boshqarishning uslubiy yondashuvlari belgilangan; bo'sh turgan hududlarni biznes aylanmasiga jalb qilish vositalari taklif etiladi; optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui qishloq xo'jaligini raqamli o'zgartirish sharoitida agro-innovatsiyalarni joriy etish taklif etiladi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligini tartibga solish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini rag'batlantirish borasida davlatning islohotchilik o'rni oshib borayotgan bo'lsa-da, oziq-ovqat xavfsizligi muammosi to'lig'icha o'z echimini topayotgani yo'q.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasida band bo'lgan yerlardan samarali foydalanish, sug'oriladigan yerlarning qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqib ketishining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar etarlicha emas.

Shu munosabat bilan biz qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni tashkil etish bo'yicha quyidagi yo'naliishlar bo'yicha chora-tadbirlar majmuini taklif qilamiz:

- yerdan foydalanishni tashkil etishni takomillashtirishda davlatning etakchi rolini kuchaytirish;

- aqli qishloq xo'jaligi va raqamli texnologiyalarni sohaga izchil joriy qilish;

- qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish borasida axborotlashtirish, "big data" tizimini keng joriy etish;

- yerdan muvozanatli foydalanishga qaratilgan tashkiliy, iqtisodiy va ekologik mexanizmlarning ta'sirini kuchaytirish.

Yerni boshqarishni maqbullashtirish sohasidagi davlatning ustuvor-ligi saqlanib qolishi kerak, bu talab ko'p ukladli boshqaruvi amalga oshirishga imkon beradigan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga zid emas. Agrosanoat majmuasi ehtiyojlari uchun foydalaniluvchi yer

maydonlarini xususiy lashtirish sohasida milliy manfaatlarning ustuvorligi yer resurslarini boshqarish, ularni tashxislash, foydalanish jihatlarini prognoz qilish, degradatsiya ahamiyati omillari ta'siridan himoya qilishni ta'minlashi lozim.

Albatta, bunday qarashni amalga oshirish qishloq xo'jaligidan oqilona foydalanishga bag'ishlangan davlat va va mintaqaviy darajada yo'l xaritalarini tuzish bo'yicha ishlarni davom ettirish zaruratinini taqozo qiluvchi to'laqonli institutsional bazani yaratishni talab qiladi, bu esa agrosanoat majmui ehtiyojlari uchun foydalanimayotgan yer maydonlarini boshqarishda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolardan qochish imkonini beradi.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 mayda PQ-4702-soni "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarori, <https://lex.uz/docs/4803531> <https://www.if24.ru/selskoe-hozyajstvo-budushhego-globalnye-trendy/>

Абдувоҳидов А., Расулов С. СУГОРИЛАДИГАН ЕРЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – Т. 24. – №. 4. – С. 366-376.

Алиқулов Ф.Н., ўғли Нормошов А.Ғ. (2024) СУГОРИЛАДИГАН ЕРЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ БҮЙИЧА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ЧОРА ТАДБИРЛАР, МУАММОЛАР ВА ТАКЛИФЛАР (ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ БҮЙИЧА) //RESEARCH AND EDUCATION. – Т. 3. – №. 2. – С. 4-8.

Мўминов Д. Ғ. и др. (2023) СУГОРИЛАДИГАН ЕРЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА ЛАНДШАФТ-МЕЛИОРАТИВ БАҲОЛАШ (АНДИЖОН ВИЛОЯИ МИСОЛИДА) //Экономика и социум. – №. 1-2 (104). – С. 324-329.

Усманов Ю. (2023) Фойдаланишига қайта киритилган деградацияга учраган сугориладиган ерлардан самарали фойдаланиши ташкил қилиш тадбирлари //Устойчивые направления управления земельными ресурсами в Узбекистане: проблемы и решения. – Т. 1. №. 1. – С. 296-300.

Чориев Қ.А., Султанов Б., Юнусов И. (2016) СУГОРИЛАДИГАН ЕРЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МУҲИМ ЖИХАТЛАРИ //Irrigation and Melioration. – 2015. – Т. №. 1. – С. 51-55.